

# Oliy o‘quv yurtlariga tayyorlanuvchilar uchun



**abituriyent tayyorlov markazi**

## **S A V O L L A R   K I T O B I**

**ABITURIYENT:** \_\_\_\_\_

**imzo**

### **Abituriyent diqqatiga !**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab unda har bir fan bo‘yicha 30 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa, darhol auditoriya rahbariga ma’lum qiling.

### **Variant**

**Fanlar :** Blok. Ona tili va adabiyot  
Blok. Biologiya  
Blok. Tarix

**OMAD YOR BO‘LSIN !!!**

**Qarshi 2019**

Telegram manzilimiz @qarshi\_Alfa .

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Quyidagilardan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) Sarxil, avaxta, taziya
- B) A'mol, bamaylixotir, yozg'irmoq
- C) Hansiramoq, qarquloq, kalandimog'
- D) Vajohat, to's-to'palon, muhoraba

2. Men yoshligimdan hindlarning mehmon kelganda, nikoh va boshqa marosimlarda qadrdonlari bo'yniga gulchambar taqishlaridan ta'sirlanaman. Yana hindlarning ota-onasi bilan ko'rishayotganda egilib xokipoyini ko'zga surtishlari, hatto hind ayollarining turmush o'rtog'iga nisbatan shunday hurmati ham men uchun nihoyatda go'zal va betakror bo'lib tuyuladi. Yaponlar-chi, rahbarimi, oddiy ishchimi, ayolmi yoki erkakmi, bir-birlari bilan duch kelganda nim tabassumda egilib salomlashadi. Ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmni toping.

- A) Affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasalgan fe'llar mavjud.
- B) O'tgan, hozirgi va kelasi zamon sifatidoshi ishtirok etgan.
- C) Gapda faqat egalar uyushib kelgan.
- D) 3o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan

3. Birov sening aybingni yuzingga aytisa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgidir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi? Ushbu gapda atash ma'nosiga ega bo'lmagan nechta birlik ishtirok etgan?

- A) 7ta B) 6ta C) 5ta D) 4ta

4. Quyida berilgan bir necha boshli qo'shma gaplarning qaysi biri ham ega, ham to'ldiruvchi ergash gaplarni o'ziga tobelantirib kelgan?

- A) Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, unga quvvat yuguradi, bahri-dili ochiladi.
- B) Bu gap kutilmagan bo'lsa ham, Mirhamidning yoshiga munosib ravishda tiniq yuzi oqarishdi, oq oralagan cho'qqi soqoli xiyol titradi.
- C) butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizni burchimizdir.
- D) Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ovozi ham chiqmay qoldi, hamma o'zini salqinga oldi.

5. Qaysi gapda ham egalik, ham sifat yasovchi bilan shakldosh bo'la oladigan ot yasovchi morfemani qabul qilgan ega ishtirok etgan?

- A) Bobom aytgan tilak, mana, bugungi kunda onam uchun eng xolis baho bo'ldi desam, yanglishmayman.
- B) Tarqatmalar – o'qituvchilik faoliyatida eng kerakli bo'lgan o'quv qurollari hisoblanadi.
- C) O'qituvchi tomonidan beriladigan bilim maktab o'quvchilarini kelajakda aqlli farzandlar bo'lib kamol ta'minlaydi.
- D) Bahorda ekiladigan ekin kech kuzgacha yaxshi pihib yetilishi kerak.

6. O'zingizga juda yoqqan badiiy asarni o'qigan holatingizni bir eslab ko'ring. Asarda tasvirlangan obrazlarning ham, bu qahramonlar kechirgan tuyg'ularning ham sizga to'g'ridan to'g'ri daxli yo'qligini yaxshi bilasiz. Asardagi voqealar hozir ro'y bermayotganligini ko'rib turibsiz. Lekin siz asardan bosh ko'tara olmaysiz. Asar qahramonlari sizga hech kim bo'lmasalar-da, ular bilan go'yo qarindosh-u taqdirdoshday bo'lib qolasiz. Ularning tuyg'u va kechinmalari siznikiga aylanib ketadi. Berilgan badiiy parchada olmoshlarning tuzilishiga ko'ra nechta turi ishtirok etgan?

- A) 9ta B) 4ta C) 2ta D) 3ta

7. Bir kuni bechora chol qo'li titrab, kosasini sindirdi, buni ko'rgan kelini achchiq so'zlar aytib, uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi. Ushbu parchada ishtirok etgan fe'llar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A) Parchada 2ta orttirma, 3ta aniq nisbatdagi fe'l ishtirok etgan
- B) 2ta sof fe'l, 1ta harakat nomi, 2ta ravishdosh ishtirok etgan
- C) Sifatdosh eganing aniqlovchisi vazifasini bajargan
- D) Parchada ishtirok etgan fe'llarning barchasi bir xil mayl shaklida emas.

8. Inson faoliyatida ... borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. ... vositasida insoniyat tomonidan jam'arilgan bilimlar nafaqat qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. ... millat ruhining ko'zgidir. ... da millatning bor-yo'g'i, o'y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg'ulari aks etadi. Nuqtalar o'miga yo'lishi lozim bo'lgan so'z qaysi qatordagi gapda qatnashgan?

- A) So'zda ikki jihatni – tashqi va ichki, belgi va ma'noni ajratish mumkin.
- B) Agar qaysi til bilan so'zlaysan, deb so'rasalar, sidq-u sadoqat tili bilan, deb aytingil.
- C) Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. D) Adabiyot yashasa, millat yashar

9. Qaysi qatorda til orqa jarangsiz portlovchi undosh tovush boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llangan?

- A) Gulnor guzardagi gulzordan go'zal gullar uzdi.
- B) Kaftdek tepa, kaftdek tepa ustida kemadek kapa.
- C) Ko'kka boqma, ko'pga boq. D) Oq ko'ylakka ko'k tugma, ko'k ko'ylakka oq tugma.

10. Atmosfera yo'qligi sababli Oyga Quyoshning barcha nurlari to'g'ridan to'g'ri tushaveradi. Quyosh o'zidan issiqlik, yorug'lik va radioto'lqinlar chiqaradi. Yerdagi hayot shu issiqlik va yorug'likka bog'liq.

Ushbu gapdagi fonetik hodisalar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A) Vositasiz va vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan tub so'zlar fonetik o'zgarishga uchragan.
- B) Fonetik o'zgarishlar faqat affiksatsiya usulida yasalgan so'zlarda uchraydi.
- C) Bir o'rinda modal so'z tovush o'zgarishiga uchragan
- D) Vositasiz to'ldiruvchini shakllantirgan fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zning yasaliş asosi fe'l so'z turkumi

11. Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi// yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir// odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi. Gapdagi tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'ying.

- A) Nuqtali vergul, vergul B) Ikki nuqta, vergul
- C) Tire, nuqtali vergul D) Vergul, vergul

12. Quyidagi qaysi bog'langan qo'shma gap tarkibida har ikkala qismda ham bitishuv munosabatli so'z birikmasi berilgan?

- A) Giyohvandlik - insoniyat kushandasi, shifokorlar esa unga qarshi kurash uchun qulay yo'l qidirishmoqda.
- B) Kim testni ko'p ishlasa, unga a'lo baho qo'yiladi.
- C) Bosqinchining ko'zlariga tansiq mollar ko'p ko'rindi va Movaraunnahmi talash niyatidan voz kechdi.
- D) Gulchehra "piq"etib kuldi-da, cho'zilib tugunni oldi.

13. Qaysi gapda ikki xil gap bo'lagi ajratilgan?

- A) Axir uning ,Vohidning ham o'ziga yarasha obro'si, g'ururi, izzat-nafsi bor-ku!
- B) Onasi ham bolasining, baxti qora jigargo'shasining , ko'zlarida shu zor-u mushtoklik olovini ko'rdi
- C) Bu kampir Toshkentda ishlaydigan o'g'linikida biro y turib, yanaqishloqqa, boshqa bolalari , nevaralarihuzuriga ketayotgan ekan.
- D) Soyda, qo'shyong'oqning tagida, necha yillardan buyon yuragini o'rtgan o'sha oppoq qiz – Zumrad turar edi.

14. Qaysi qatorda sinonim so'zlar berilmagan?

- A) Balandparvoz, dabdabali, tamtaroqli, bejama
- B) Beva, tul, yesir
- C) Hech, aslo, asti, sira, mutlaqo, zinhor, butunlay, hargiz, taqir, zarracha, zig'ircha, tirmoqcha
- D) Jirkanch, qabih, razil, manfur, zalil, nafratli, qo'rqinchli

15. Ichkaridan rubob ovozi eshitildi. Avvaliga hissiz, erinchoq ting'illab turdi-yu, keyin birdan jo'shqin sadolar jaranglab ketdi. Muqaddam bir nafas quloq solib, bu kuyni avval hech qayerda eshitmaganini sezdi. Ha, bu mutlaqo yangi kuy edi. Unda endigina yerdan bosh ko'targan boychechaklarning shivirlashi kabi tuyg'ular bor edi. Muqaddam beixtiyor jilmaydi.

Parcha haqidagi morfologik to'g'ri hukmni toping.

- A) Parchada mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan
- B) Parchada biriktiruv munosabatli bo'g'langan qo'shma gap mavjud
- C) 4ta olmosh ishtirok etgan.
- D) Qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan narsa oti tarkibida sonor undosh mavjud

16. Qaysi qatordagi so'zlar 3o'rinda omonim bo'la oladi?

- A) jar, yoq, bo'l, in B) kech, ort, oshiq, rom
- C) sira, sur, pay, nor D) tur, chor, shira, mushak

17. Quyidagi gaplarning qaysi birida teng bog'lovchi qo'shma gaplarni bog'lash uchun xizmat qilgan?

- A) Boshqa qushlardan farq qilib, bular na don-dun terar, na sayrar, na shoxdan shoxga uchib-qo'nar, faqat kichkina sarg'ish ko'zlarini tikkancha nimanidir sabr-toqat bilan kutishardi.
- B) Bu bitta to'da ichidagi gapmi yo to'dalar orasidagi fitnaning boshlanishimi? Bitta to'da ichida bo'lsa, boylikni topmay qo'yishmasdi.
- C) Qudangiz meni na yerga va na ko'kka ishonadir, o'n besh kundan beri qo'limni sovuq suvga ham urdirmay qo'ydi.
- D) Agar ko'pni ko'rgan Kolizey g'ishtlaridan bir bo'lagini olib quloqqa tutsangiz, bu yerda bo'lib o'tgan tantanalar, gladia tor lar ning buqa

bilan olishuv paytidagi shovqin-suronlarni, odamlarning hayqiriqlarini eshitarmikansiz?

18. Qaysi gapda tovush ortishi hodisasi to'ldiruvchi vazifasini vajargan olmosh tarkibida ro'y bergan?

- A) Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay, o'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.  
B) Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmaydi.  
C) Yur, seni kitobxonlikka olib boray, – dedilar bir kuni rahmatli otam Maqsud Sobir o'g'li.  
D) ..Sizga qarsaklarda chiniqdi ilгим, Istiqbol sizniki, baringizniki.  
Olamning egasi siz bo'lmayin, kim?  
Shundayin olamki, kelmagan tengi.

19. Odammisiz, nimasiz?! Uning ovozi o'ziga juda uzoqdan eshitilayotganga

o'xshardi. – Axir, insof, vijdon degan narsa bormi sizda?! Shamollatgandirsan-da? – dedi Nazir ota. Siz endi ko'rayotgandirsiz-da?

O'zingga o'xshagan boyvachchalarni aytishga shoshmagandirsan? Har holda, bekorga so'ramagandirsiz. Bir-ikkita joyni ko'z ostiga olib qo'yuvdim, bir borib ko'rsang bo'larmidi? Sen tug'ib qo'ysang-u, boshga xotin tarbiyalasa, bolada ena-otaga mehr bo'larmidi? Ushbu gapda jami nechta yordamchi so'z turkumlariga kiruvchi birlik ishtirok etgan?

- A)10ta B)11 C)12ta D)13ta

20. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, demakki, nutqiy uslublarning hammasida erkin qo'llanadigan til birliklari bor. Ular uslub nuqtayi nazaridan betaraf, ya'ni biron-bir uslubga xoslanmagan vositalar hisoblanadi va ular tilda juda katta qismi tashkil etadi. Ushbu parcha haqidagi noto'g'ri hukmni toping.

- A) Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra ikki turi qatnashgan  
B) kompozitsiya usulida yasalgan so'z ishtirok etmagan.  
C) 2o'rinda modal so'z ishtirok etgan  
D) Son so'z turkumi ishtirok etmagan

21. Mazlumga yaxshilik qilsang, zolimdan omonda bo'lasan. Agar kuchlilardan zarar ko'rmayin desang, kuchsizlarga foyda yetkaz, aqli bor odam janjallashishdan qochadi; do'stlashish uchun kelishuvchilik eshigini ochadi. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) "Mahbub ul-qulub" B) "Nasixatlar"  
C) "Hibat ul-haqoyiq" D) "Yatimat ud-dahr"

22. Alisher Navoiy "firdavsmonand" deb ta'riflagan joyga Bobur qanday ta'rif bergan?

- A) Elining orasida husni xayli bor.  
B) Qal'aning girdogirdi tamom maholllotdur.  
C) Girdo-girdi tog' voqe bo'lubdur.  
D) Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami mevasi xo'b bo'lur.

23. Xalq dostonlarining birida "Cho'pchak terib, non parcha tilab yeydigan" deya kim ta'riflangan?

- A) Gurkiboy B) Mohiboy C) Rustamxon D) Ravshan

24. Turkman shoiri Mahtumquli haqidagi ma'lumotni belgilang.  
A) Maktab tahsili tugagach, o'qishni Qiziloyuq ovu lidagi Idrisbob, Buxorodagi Ko'kaldosh, keyinchalik xonlik markazi bo'lmish Xivadagi Sherg'uzi madrasalarida davom ettirib, zamonasining fozil kishisi bolib yetishdi. O'z mehnati bilan halol rizq topish maqsadida zargarlik hunarini o'rgandi.

- B) Shariat nuri birlan arsay olamni3 anvar4 qil, Bisoti saltanatga ziynati islomni zavar5 qil, Amiri adlgustar6, hukmron mazlumparvar qil, Asosi zulm daf'in qil, adolatpesha sarvar qil, satrlari muallifi

C) 1890-yili tog'asi Muhammad Siddiq bilan birga haj safariga chiqib, olti oy davomida Turkiya va Arabiston mamlakatlarida bo'ladi. Shoir safar davomida boshqa xalq larning hayoti, urf-odatlarini bilan tanishadi. Natijada dun yoqarashi kengayib, ijodida yangi mavzu va ohanglar paydo bo'ladi. Haj safaridan qaytgan shoir ota kasbini davom ettiradi va umrining oxirigacha badiiy ijod bilan shug'ullanadi.  
D) Mumtoz adabiyotning g'azal, muxammas, musad das, murabba', chiston hamda doston kabi janrlarida qalam tebratgan va uning she'rlari asosan ishqiy mavzuda

bitilgan. Ularda o'zining Yaratuvchisiga intiqlik bilan intilayotgan solik banda, Payg'ambar alyahissalomga oshiq ummat, ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg'ularini izhor etadi. Shuningdek, insonning insonga sevgisini tarannum

etuvchi g'azallari ham talaygina.

25. Asarda o'nlab insonlar taqdiri borki, shafqatsiz va chigal hayot bo'roni ularni xuddi cho'ldagi bir uyum xashakdek sarson-sargardon qiladi. Gap qaysi asar haqida ketyapti?

- A) "Chinor" B) "Ufq"  
C) "Yulduzli tunlar" D) "Yulduzlar mangu yonadi"  
26. Go'rog'li nomi qaysi asarda Rayhon bilan birgalikda qo'llangan?

- A) "Gul bir yon..." B) "Ravshan"  
C) "Adolat yaxshi" D) "Kuntug'mish"

27. Ko'z qaro qilma g'ayr qoniga,

- Qonim ich qona-qona, ey qaro ko'z.  
Ushbu baytda qanday badiiy san'atlar qo'llanmagan?

- A) mukarrar, tasdir B) alliteratsiya (tavze), tard-u aks

- C) nido, mubolag'a D) ishtiyoq, takrir  
28. Qaysi obrazning yugurishi shamolga o'xshatilgan?

- A) Kichkina shaxzoda ("Kichkina shaxzoda")  
B) Qizcha ("Bulbul") C) Turg'un chavandoz ("Uloqda")  
D) Muso ("bolaning ko'ngli poshsho")

29. Halima Xudoyberdiyevaning "Uyg'on" so'zin

- aytgach....."she'ridagi "ko'mir qazib, ko'mir bo'lgan chin tillolar"

- kimlar?  
1) A. Qodiriy 2) Cho'lpon 3) Fayzullo 4) Fitrat  
5) Akmal Ikrom 6) Usmon Nosir 7) Furqat

- A) 1,2,3,5,6 B) 1,2,3,4,6  
C) 1,2,3,6,8 D) 2,3,4,5,6

30. Bodomning ichida mag'iz saqlanganidek, bu bola ham ko'z beshigida farog'atda yashardi. Uning atrofini o'rab olgan el u tomonga sovuq shamolni esgani qo'ymasdilar. Uning bo'g'zidan sut o'tishi bilan qonga aylanar, bu vajdan

bag'ri ham qonga to'lar edi. Beshikka tang'ilish bilan uning tani qiynalib, azoblana boshladi.

Ushbu ta'rif qaysi adabiy qahramon haqida?

- A) Majnun ("Layli va Majnun") B) Anvar ("Mehrobdan chayon")  
C) Asror ("Alvido, bolalik") D) Tursunboy ("Ufq")

**Tuzuvchi: Malohat Rahimova**

**Taklif va e'tirozlar uchun tel: +99890 528 78 18**

## BIOLOGIYA

31. Shershevskiy-Terner sindromi bilan kasallangan odamda mitozning metafaza bosqichida xromosoma (a) va xromatida (b) soni nechta bo'ladi?

- A) a-44 b-88 B) a-46 b-92  
C) a-45 b-90 D) a-45 b-92

32. Katta yoshli erkak shifokorga murojaat qildi. Tekshirish natijasida qon bosimi maksimal 125-130 mm, minimal 90 mm, 1 mm<sup>3</sup> qoni tarkibida 10-15 ming dona leykosit, 1mm<sup>3</sup> qoni tarkibida 4.5 mln eritrosit, qon plazmasi tarkibida antigemofil omil kamligi, siydigi tarkibida 150-250 mg % qand borligini aniqlandi. Ushbu bemor qaysi kasallik bilan kasallanmagan?

- A) leykositoz B) anemiya C) gemofiliya D) qandli diabet

33. 5 ta urug'li meva hosil bo'lishida nimalar ishtirok etadi?

- A) xromosoma to'plami gaploid bo'lgan 5 ta sperma, 5 ta mikrospora, 5 ta vegetativ hujayra  
B) xromosoma to'plami diploid bo'lgan 5 ta markaziy hujayra, xromosoma to'plami gaploid bo'lgan 10 ta vegetativ hujayra  
C) xromosoma to'plami diploid bo'lgan 5 ta arxeospora, xromosoma soni gaploid bo'lgan 10 ta sperma, 5 ta mikrospora  
D) xromosoma to'plami gaploid bo'lgan 5 ta tuxum hujayra, 5 ta vegetativ hujayra, xromosoma to'plami diploid bo'lgan 1 ta arxeospora

34. To'g'ri gulli o'simliklardan tur(lar) (a) va qiyshiq gulli o'simliklardan tur(lar) (b) berilmagan javobni aniqlang?

- 1) zangori sachratqi 2) shuvoq 3) qizil lola 4) jag'-jag'  
5) o'tloq sebargasi 6) kanop 7) oshqovoq 8) moyli kungaboqar  
9) tangao't 10) astragal 11) misr g'o'zasi

- A) a-3.11 b-9.10 B) a-1.6 b-3.7  
C) a-4.2 b-5.8 D) a-6.2 b-1.8

35. Termitga xos bo'lgan xususiyatlar nechta?

- 1) oilasida o'nlab erkak, bir necha yuz minggacha ishchi va quriqchilar bo'ladi 2) ona termit 10 yilgacha yashaydi 3) qoni kislorod tashishda ishtirok etadi 4) o'simliklarni generativ organi bilan oziqlanadi 5) traxeyasi orqali nafas oladi 6) to'la o'zgarish bilan rivojlanadi 7) quriqchisi boshi yirik, jag'i kuchli rivojlangan 8) postembrional davri tuxum, lichinka, voyaga yetgan davrlarni o'z ichiga oladi 9) oyoqlari 8 ta 10) yuragi ko'p kamerali 11) ayirish organi malpigi naychasidan iborat

- A)5 B)6 C)7 D)8
36. Muskullarni joylashishiga ko'ra ortiqchasi aniqlang?  
A) tishsimon, o'mrovosti B) serbar, diafragma  
C) chakka, chaynash D) rombsimon, tashqi qovurg'alararo
37. To'g'ri fikrni aniqlang?  
A) yirtqich qush, laylak, karqur kabi hayvonlarni jufti uzoq yillar davomida saqlanib qoladi  
B) kapcha ilon qurbaqa, kemiruvchi kaltakesak, ilon kabi sovuqqonli hayvonlar bilan oziqlanadi  
C) o'rdak, g'oz, oqqush kabi hayvonlarning tumshug'i qirrasini bo'ylab har xil shakldagi muguz plastinkalar joylashgan  
D) oq ayiq, o'rdakburun, timsoh kabi hayvonlar yuragi 4 kamerali, moddalar almashinuvi jadal kechadi
38. To'g'ri fikrni aniqlang?  
A) bug'doy, makkajo'xori, karam, olma kabi o'simlik namlik yetarli muhitda o'sadigan o't o'simlik  
B) karam, sholg'om, sabzi kabi o'simliklarni urug'i 5°C da o'nib chiqadigan, karamdoshlar oilasiga mansub sabzavot o'simlik  
C) pomidor o'simligini barglari novdada ketma-ket joylashgan, yorug'sevar, bir yillik madaniy turkum hisoblanadi  
D) gladiolus o'simligi piyozchasidan ko'payadigan, magnoliyatoifaga mansub qiyshiq gulli o'simlik
39. Beda, kiyiko't, shirinmiya, lola kabi o'simliklari uchun umumiy xususiyatlar nechta?  
1) poyasi kambiyli 2) guli qiyshiq 3) magnoliyatoifa 4) murtak ildizchasidan hosil bo'lgan asosiy ildiz uzoq muddat yoki o'simlik hayotining oxirigacha saqlanib qoladi 5) ko'p yillik o't 6) barg yaprog'i panjasimon tomirlangan 7) magnoliyasimon 8) murtak ildizchasidan asosiy ildiz hosil bo'ladi 9) urug'chisi bitta 10) mevasi dukkak 11) barglari novdada ketma-ket joylashgan  
A) 7 B) 3 C) 6 D) 4
40. Sog'lom odamda mitoz jarayonida telofaza bosqichida (a), meyozi jarayonini anafaza I bosqichida (b) mikronaychalar soni nechta bo'ladi?  
A) a-54 b-108 B) a-108 b-54  
C) a-108 b-108 D) a-54 b-54
41. J. H. Hamidov odatdagiga nisbatan yirik va tez o'suvchi quyoni qanday qilib oladi?  
A) zigotasiga o'sish gormoni kiritadi  
B) tuxum hujayrasiga o'sish gormoni geni kiritadi  
C) zigotasiga o'sish gormoni geni kiritadi  
D) somatik hujayrasiga o'sish gormoni kiritadi
42. 17 yoshli bolada yuqori jag'ida almashinadigan tishlar soniga quyidagilarni qaysilari sonini yig'indisi teng?  
A) buyraklar, jigar, yurak  
B) yetim qovurg'a, o'pkalar, me'da osti bezi qismlari, jigar  
C) qoziq tishlar, chin qovurg'alar, buyraklar  
D) yo'g'on ichak qismlari, to'sh suyagi, jigar
43. Tikandum, qilquyruq, dengiz otchasi kabi hayvonlarni birlashtiring.  
A) jinslar nisbati 1:2, yuragi 2 kamerali, jabrasi orqali nafas oladi  
B) ayirish organi bir juft tasmasimon buyrakdan iborat, yurakka keluvchi qon tomir vena deyiladi, suzgich pufagi rezanator vazifasini bajaradi  
C) umurtqalilar kenja tipiga mansub, qon faqat qon tomirlarga oqadi, jinslar nisbati 1:1  
D) bosh skeleti jabra ravoqlari, jabra qopqoqlari, miya qutisi va jag' suyaklaridan iborat, sovuqqonli
44. Sinantropga xos bo'lgan xususiyatlar nechta?  
1) bo'yi 135-150 sm 2) olovni yoqishni, uni saqlashni bilgan 3) peshonasi juda qiya 4) bo'yi 156-165 sm 5) tishlari yirik, pastki jag'i katta 6) o'lganidan keyin yaqinlarini ko'mganlar 7) bosh miyasi hajmi 820-1250 sm<sup>3</sup> 8) 500-300 ming yil oldin yashagan 9) Homo erectus turiga mansub 10) iyagi zaif rivojlangan 11) qadimgi odam  
A) 5 B) 4 C) 6 D) 7
45. Hujayra mitoxondriyasi uchun to'g'ri emas fikrlarni aniqlang.  
1) silliq membranasini krista deyiladi 2) ATF sintez qiladi 3) barcha eukariot va prokariotlarda bo'ladi 4) turli xil to'qimalardagi soni bir xil bo'ladi 5) ipsimon shakllarning uzunligi 15-20 mkm gacha boradi 6) turli xil to'qimalardagi soni hujayraning funksional faolligiga bog'liq 7) ko'p energiya sarflanadigan hujayralarda kam bo'ladi  
A) 2.4.6 B) 3.4.7 C) 2.5.6 D) 1.5.7
46. Norkani sistematik birlikka kichikdan kattaga qarab birlashtiring  
A) xordali—umurtqali—sutemizuvchi—kemiruvchi—norka  
B) norka—kemiruvchi—yo'ldoshli—sutemizuvchi—xordali  
C) xordali—sutemizuvchi—yo'ldoshli—yirtqich-- suvsarsimon — norka  
D) norka—suvsarsimon—yirtqich—sutemizuvchi—

- umurtqali—xordali
47. Odanning qon plazmasi tarkibida glukoza, gormon, tuz, agglyutinini β bor, eritrositlarida rezus omil, gemoglobini agglyutinogen A bor. U qaysi guruhlar qon beradi?  
1) II 2) III 3) IV 4) I  
A) 2.4 B) 3.4 C) 1.3 D) 1.4
48. Vatani Markaziy Amerika hisoblangan o't o'simliklarni aniqlang?  
A) sabzi, suli, bug'doy B) ananas, kartoshka, tamaki  
C) makkajo'xori, loviya, g'o'za D) arpa, bug'doy, kofe
49. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan chala o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlar berilmagan javobni aniqlang?  
1) Osiyo chigirtkasi 2) bronza qo'ng'izi 3) turkiston termeti 4) to'shak qandalasi 5) qir chumoli 6) yashil temirchak 7) burga 8) sariq fir'avn 9) moviy ninachi 10) suvarak 11) podalariy  
A) 6.9.1 B) 2.5.11 C) 9.3.10 D) 8.2.5
50. Hayvon va o'simliklarning shimol tomon tarqalishi ... yetishmasligidan kelib chiqadi?  
A) namlikni B) issiqlikning C) havoning D) yorug'likning
51. Simbioz gipotezasiga ko'ra qaysi organoidlar yadro membranalaridan kelib chiqqan?  
A) xloroplast, sentrosoma B) lizosoma, ribosoma  
C) Golji majmui, lizosoma, sentrosoma  
D) endoplazmatik to'r, Golji majmuasi
52. Sog'lom odamning somatik hujayrasida mitozning profaza bosqichida autosoma xromosomalari (a) va jami xromatidalarini (b) sonini aniqlang  
A) a-44, b-92 B) a-44, b-46  
C) a-88, b-92 D) a-22, b-46
53. Hayvonlarni tiplarga moslab yozing.  
1) midiya; 2) meduza; 3) karakatitsa; 4) nereida; 5) ostritsa;  
6) qum chuvalchangi; 7) osminog  
a) molluskalar; b) halqali chuvalchanglar; c) to'garak chuvalchanglar; d) bo'shliqichlilar  
A) a-1, 3, 7; b-4, 6; c-5; d-2 B) a-1, 2, 3; b-4, 5, 6; c-2; d-7  
C) a-3, 7; b-4, 6; c-5; d-1, 2 D) a-1, 2; b-4; c-5, 6; d-3, 7
54. Odamdagi o'mrov osti muskulidan bo'yinning teri osti muskulini farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuviga ko'ra to'sho'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi;  
3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi;  
4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi  
A) 1,4,5 B) 6,7 C) 2,6 D) 3,4,7
55. Pilla ichiga tuxum yo'yuvchi organizmlarni aniqlang.  
A) yomg'ir chuvalchangi, butli o'rgimchak  
B) Suv shillig'i, qurbaqa  
C) Planariya, chayon D) jigar qurti, exenakok
56. Trigeterozigota organizmlar (uchta dominant genni ham otasidan olgan) chatishtirildi. A va B genlari to'liq birikkan. Agar C genning krossingoveri 20 % ga teng bo'lsa, avlodning necha foizi ota-ona fenotipiga o'xshash bo'ladi? (krossingover har ikki organizmda ham uchraydi)  
A) 24 % B) 68 % C) 21 % D) 82 %
57. Drosophila pashshasining tahliliy chatishtirilishi natijasida quyidagi natijalar olingan. Fenotip bo'yicha ota-onaga o'xshash bo'lgan individlar — 965 va 944 ta, fenotip bo'yicha farq qiladiganlari — 206 va 185 ta. Ajralish foizini va genlar orasidagi masofani aniqlang.  
A) 17 % va 8,5 morganida B) 8,5 % va 8,5 morganida  
C) 17 % va 17 morganida D) 8,5 % va 17 morganida
58. Tovuqlarda patlarini jingalak bo'lishi va oyog'ida patining bo'lmasligi dominant belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashib, bir biridan 7 morganida masofada joylashgan. Patlarini jingalak bo'lishi dominant gomozigota holatda letal xususiyatga ega hisoblanadi. Degeterozigota genotipiga ega xo'roz, silliq patli oyog'ida pati yo'q tovuq bilan chatishirilgan bo'lsa, olingan tovuq va xo'rozlarni necha foizini silliq patli va oyog'ida pati yo'q organizmlar tashkil qiladi?  
A) 1,75 % B) 46,5 %  
C) 26,75 % D) to'g'ri javob berilmagan
59. To'g'ri fikrni aniqlang.  
A) erkin harakatlanuvchi tuban hayvonlarning yorug'lik yo'nalishiga to'g'ri harakati fotonastiya deyiladi  
B) o'simliklarning yorug'lik yo'nalishiga bo'g'liq bo'lgan harakati fotonastiya deyiladi  
C) retsessiv belgili organizm genotipini fenotip asosida aniqlash mumkin

- D) barcha hayot shakllarida ATF sintezlanadi  
 60. DNK qo'sh zanjirida 510 ta vodorod bog' bo'lib sitozin purin asosidan 2,333 marta kam bo'lsa, DNK uzunligini aniqlang.  
 A) 71,4 nm B) 142,8 nm C) 102 nm D) 204 nm

**TUZUVCHILAR: Bozorova Zuxra, Qurbonov Ne'madulla.**  
**Taklif va e'tirozlar uchun: +99897-222-04-50.**

**TARIX**

61. Quyidagi javoblarni xalqlar bilan muvofiqlashtiring.  
 1) burlar 2) kreollar 3) mamluklar a) ispan va portugallar ; b) gruzin va kavkaz c) fransuz , nemis, golland  
 A) c-1 ,b-2, a-3 B) b-1 ,a-2, c-3  
 C) c-1 ,a-2, b-3 D) a-1 ,c-2, b-3  
 62. Quyidagi rasmda berilgan shaxsga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang.



- A) "To'rt iqlim podshosi" nomini olgan  
 B) Old Osiyodagi yagona kutubxonani barpo ettirgan  
 C) qurilishda birinchi marta pishgan g'ishtdan foydalanishni farmon bergan  
 D) Ahamoniylar davlatiga asos solgan

63. O'rta asrlarda Fransiyaning birlashuvida qaysi feodallar bilan nikoh shartnomasi orqali birlashtirilgan?

1. Shampan 2. Burj 3. Akvitanija  
 4. Burgundiya 5. Flandriya 6. Bretan  
 A) 1,5 B) 2,6 C) 3,6 D) 4,6

64. Harbiy sohada islohot o'tkazgan hukmdorlar (qirollar) berilgan to'g'ri javobni aniqlang.

1. Karl VI; 2. Genrix II; 3. Ioann; 4. O'zbekxon;  
 5. Karl V; 6. Fridrix I. 7. Abbas I  
 A) 1,5, 6 B) 2,4,5 C) 2,5,7 D) 1, 3,6

65. Quyidagi qaysi davlatda XIX asrning 70-yillari oxiridan boshlab mustamlakachilik siyosatining yo'nalishi avval bosib olingan mustamlaka hududlarni o'zlashtirish va yangi mustamlakalar bosib olishga qaratildi?

- A) Rossiya B) Fransiya C) AQSH D) Buyuk Britaniya

66. Sovet hukumatining rahbari V.I. Leninning buyrug'i bilan O'rta Osiyoning favqulodda komissari qilib quyidagilardan qaysi biri jo'natildi?

- A) P. Kobozev B) F.Kolesov  
 C) I.Tobolin D) M.Frunze

67. "Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini bosib olgan vaqtda Qo'qon xonligida hukmronlik qilib turgan shaxsni aniqlang.

- A) Xudoyorxon B) Sulton Mahmudxon  
 C) Sheralixon D) Muhammad Alixon

68. Ikkinchi jahon urushi davrida tuzilgan "Uchlar ittifoqi" tarkibiga kirmagan davlatlarni aniqlang.

- A) Ruminiya, Vengriya B) Italiya, Ruminiya  
 C) Germaniya, Vengriya D) Avstriya, Yugoslaviva

69. Quyidagi jadvalda harflar bilan berilgan kataklar o'rniga mos keluvchi ma'lumotni qo'ying?

Asr	O'zbekiston tarixidagi ma'lumot	Jahon tarixidagi ma'lumot
	iqtisodiy qiyinchiliklar va xalqning ma'naviy	

a	jihtadan kamsitilishi, mahalliy urf-odatlarga zid bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi natijasida Turkiston Rossiya imperiyasining milliy-ozodlik harakatlari avj olgan markazlaridan biriga aylandi.	b
XX asr boshlari	c	AQSH sanoat ishchilarining soni jihatdan birinchi o'rinni egalladi.
XIX asr 70-yillari	Qoraqalpoqlarda o'troqlikka o'tish jarayoni kuchaydi	d

- 1) Yevropada „imperializm“ atamasining keng ishlaltila boshlandi  
 2) XIX asr o'rtalari 3) XIX asr oxiri  
 4) qoraqalpoq adabiyotidagi demokratik an'analarni yangi avlod vakillari Umar, Qulimbet, Sariboy, Qulmurot, Sodiq kabilar davom ettirdilar. 5) Andijon jome masjidi o'z qurilishi bilan yuksak milliy me'morchilik namunasi bo'lib qoldi.  
 6) Karnegi o'zining ko'p millionli mulkini sotdi  
 7) AQSHda jadal urbanizatsiya jarayoni avj oldi.  
 8) vodiy milliy me'morchiligiga Yevropa me'moriy uslubidagi binolarni qurish an'analari kirib keldi.  
 A) a-3; b-2; c-6; d-7. C) a-2; b-7; c-5;d-6  
 B) a-3; b-1; c-4; d-7. D) a-2; b-7; c-5; d-1  
 70. Quyidagi qaysi asarda "o'limdan qutulib qolgan yovvoyi" obrazi uchraydi?  
 A) "Robinzon Kruzoning hayoti va g'aroyib sarguzashtlari"  
 B) "Gulliverning sayohatlari"  
 C) "O't. Bir vzvodning kundaligi"  
 D) "Qahramonning o'limi"  
 71. Ma'lumotlarni moslashtiring.  
 1) Amir Haydar; 2) Abdulazizxon; 3) Abulfayzxon; 4) Elbarsxon;  
 a) Uning farmonlari saroy ostonasidan o'tmagan;  
 b) Uning davrida ichki va tashqi savdo ancha o'sdi; c) Qozoq xonligidan bo'lgan birinchi xon edi; d) Uning davrida Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchaydi;  
 A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-d B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c  
 C) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a D) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c  
 72. Qachonga kelib Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib , ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi?  
 A) XIV asrning birinchi yarmida B) XIII asrning o'rtalarida  
 C) XIV asrning ikkinchi yarmida D) XIV asrning boshlarida  
 73. Birinchi jahon urushi arafasida qaysi davlatda trestlarga qarshi qonun qabul qilindi  
 A) AQSh B) Fransiya  
 C) Germaniya D) Buyuk Britaniya  
 74. Qurama uyezdining nomi Toshkent uyezdiga aylantirilgandan necha yil oldin Xudoyorxon saroyi qurilishi boshlangan?  
 A) 23-yil B) 25-yil C) 27-yil D) 22-yil  
 75. Quyida keltirilgan voqealardan qaysilari mil. avv. I asrda ro'y bergan?  
 1) "Geografiya" asari muallifi yashab o'tgan ;  
 2) Xitoyda sariq ro'mollilar qo'zg'oloni bo'ldi;  
 3) Xitoyda qog'oz kashf qilindi;  
 4) Kushon davlati vujudga keldi;  
 5) Rim imperiyasiga asos solindi;  
 6) Spartak qo'zg'oloni bo'lib o'tdi;  
 7) Buyuk ipak yo'li shakllandi;  
 8) Misr Rim provinsiyasiga aylanadi.  
 A) 1, 2, 4, 5, 6, 7 B) 1, 3, 5, 6, 8  
 C) 2, 3, 5, 7, 8 D) 2, 3, 4, 7, 8  
 76. XIX asr o'rtalarida qaysi jarayon ishlab chiqarishda inqilobga teng ixtiro sanalganligini aniqlang.  
 A) mashinasozlikda turli xil dastgohlarning yaratilishi  
 B) mikrozarra-elektron kashf etildi  
 C) rentgen nurlarini kashf etilishi  
 D) jahon tarixida birinchi marta iqtisodiyotdagi yetakchilik sanoatdan qishloq xo'jaligiga o'tishi



77. Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kirgan qaysi hududdagi shaharlar german imperatorlariga hech qachon to'liq bo'ysunmagan?  
 A) Germaniyaning sharqidagi shaharlar  
 B) Italiyaning markaziy hududidagi shaharlar  
 C) Italiyaning shimoliy hududlaridagi shaharlar  
 D) Germaniyaning shimoliy shaharlari
78. "Sovuq urush" yillarida quyidagi qaysi davlatlar ikki qismga bo'linib ketib, so'ng yana qayta birlashgan edi?  
 1) Vetnam; 2) Xitoy; 3) Hindiston; 4) Koreya;  
 5) Niderlandiya; 6) Germaniya.  
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 6 C) 2, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4
79. Qaysi manbalarning topilishi bilan olimlarga qadimgi mingyilliklar tarixini o'rganish oson bo'ldi?  
 A) arxeologik B) etnografik  
 C) moddiy manbalar D) yozma manbalar
80. Nikolay II hukmronligi davrida O'rta Osiyoda sodir bo'lmagan qo'zg'olonlarni aniqlang.  
 1) Bobo Go'klan qo'zg'oloni; 2) Hazorasp, Xonqada o'qotar qurollar bilan qurollangan qo'zg'alon;  
 3) Yetimxon qo'zg'oloni;  
 4) Dukchi eshon qo'zg'oloni;  
 5) Namangan aholisi uyezd boshlig'ining uyini o'rab oldi; 6) "Toshotar voqeasi"  
 A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 5, 6
81. Quyidagi qaysi shaharlarimizning yubeleyi bir yilda nishonlangan?  
 A) Qarshi, Termiz B) Qarshi, Shahrisabz  
 C) Samarqand, Marg'ilon D) Buxoro, Toshkent
82. Qachon Turkiston O'lka Musbyurosi tashkil etilgan?  
 A) 1918- yil martda B) 1920- yil yanvarda  
 C) 1919- yil martda D) 1919- yil yanvarda
83. Munavvar Qori tomonidan "Jamiyati hayriya" tuzilgandan necha yil o'tib, Toshkentda "Sho'royi Islomiya" tashkiloti tuzilgan?  
 A) 6 yil B) 7 yil C) 8 yil D) 10 yil
84. Ma'lumotlarni moslashtiring.  
 1) Xitoy; 2) Hindiston; 3) Afg'oniston; 4) Eron; 5) Turkiya;  
 a) 1832-yil bu davlat hukmdori qo'shinlari tor-mor etildi; b) 1730 - yil bu davlat hududidan afg'on bosqinchilari quvib chiqarildi; c) Hukmronligi davomiyligi bir xil bo'lgan hukmdorlar o'tgan; d) 1870- yilda bu davlat qaram emasdi. e) Buyuk Britaniya bu davlatda hammadan ko'proq imtiyozlarga ega bo'ldi.  
 A) 1-d, 2-c, 3-e, 4-b, 5-a B) 1-e, 2-c, 3-d, 4-b, 5-a  
 C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b, 5-e D) 1-e, 2-d, 3-c, 4-b, 5-a
85. AQSHda har ikkala partiya ham qaysi tabaqa vakillariga o'z ta'sirini o'tkazish uchun kurash olib brogan?  
 1) dehqonlar 2) mayda fermerlar 3) mayda burjuaziya  
 4) ishchilar 5) o'rta mulkdorlar 6) savdogarlar  
 A) 1,3,6 B) 2,3,6 C) 1,3,5 D) 2,3,4
86. Quyidagi rasmda belgilangan davlat mustaqillik erishgan yilni aniqlang



- A) 1813-yilda B) 1811-yilda  
 C) 1825-yilda D) 1822-yilda
87. Rossiya Nercha shartnomasini imzolaganidan 1 asr o'tib bo'lgan voqeani toping?  
 A) Fransuz burjua inqilobi boshlandi  
 B) Rossiya tomonidan Qrim xonligi zabt etildi  
 C) Prussiya qiroli Fridrix II hukmronligi tugadi  
 D) Sin imperiyasi Oyrot xonligini zabt etdi.
88. Qachon Fransiya Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi?  
 A) 1883- yilda B) 1885- yilda  
 C) 1896- yilda D) 1912- yilda
89. Tarixda "xalq inqilobi" qaysi davlatda bo'lib o'tgan mamlakat necha yil hukmrolik qilgan?  
 A) 267 yil B) 273 yil C) 408 yil D) 129 yil

90. Temuriylardan kimga shimoliy-sharqiy Eron suyurg'ol qilib berilgan?

- A) Mironshohga B) Pirmuhammadga  
 C) Pirmuhammad Jahongirga D) Shohrux Mirzoga

**Tuzuvchi: Xoliqov G'olib**  
**Taklif va e'tirozlar uchun tel: +99890 428 20 26**